

Uzbekistan Airways dunyodagi eng yirik sayyohlik ko'rgazmalaridan biri - ITB Berlin 2025'da ishtirok etmoqda!

2025 5 Mart

Yirik tadbir 4-6 mart kunlari Berlinda "Sayohat dunyosi shu yerda yashaydi" shiori ostida o'tkazilmoqda. Uzbekistan Airways 170 dan ortiq mamlakat va mintaqalardan kelgan olti mingta ishtirokchidan biri bo'ldi.



“O‘zbekiston” milliy stendi doirasida Uzbekistan Airways‘ning Frankfurt va Myunxendagi vakillari aviakompaniya imkoniyatlarini muvaffaqiyatli taqdim etib, turizm sohasidagi hamkorlar bilan o‘nlab muzokaralar olib bordilar.









